



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**XORAZM VILOYATIDA
BAJARILGAN QURILISH ISHLARINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI**

2024- YIL YANVAR-IYUN


Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyun oylari uchun)

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida jami 2 967,9 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 109,7 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: qurilish faoliyati bu – oʼz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida qurilish ishlari




2024- yilning yanvar-iyun oyida hududlar kesimida, xususan, Urganch shahri (577,0 mlrd. soʻm), Urganch tumani (444,0 mlrd. soʻm) va Xiva tumanida (321,2 mlrd. soʻm) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,7 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 107,3 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 27,9 % ulushni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 114,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,4 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 123,1 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlaringin katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringin 86,7 %i yoki 2 573,8 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 353,1 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 98,4 %ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 1 231,1 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 78,7 %ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 989,6 mlrd.so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 38,5 %ni tashkil etdi.

98,4 %
353,1
mlrd. so'm

78,7 %
1 231,1
mlrd. so'm


38,5 %
989,6
mlrd. so'm

Yillar kesimida yangi qurilish ishlarining hajmi va ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmda yangi qurilish ishlaring ulushi


2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm Urganch shahri (513,7 mlrd. so'm), Urganch tumani (385,1 mlrd. so'm) va Xiva tumanida (283,4 mlrd. so'm) qayd etildi.



2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bajarilgan qurilish ishlari hajmi – 2 967,9 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.


Jami qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 12,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % punktga ko'payidi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % punktga kamayib, 52,7 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,2 % punktga ko'payib, 35,2 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 358,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 131,8 % oshgan va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,0 % ga ko'payib, 12,1 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari


Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda




Jamiga nisbatan ulushi



Urganch shahri.



Xiva tumani




Bog‘ot tumani

Ma‘lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahrida (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,7 %), Xiva tumanida (14,6 %) va Bog‘ot tumanida (9,2 %) qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 52,7 %i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 4,3 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 101,6 % ni tashkil etgani holda 1 564,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
112,9 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan
106,0 %

823,2
mlrd. so'm

960,8
mlrd. so'm

1 150,5
mlrd. so'm

1 422,8
mlrd. so'm

1 564,0
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

93,8 %
oldingi yilning mos
davriga nisbatan

98,8 %
oldingi yilning mos
davriga nisbatan

101,6 %
oldingi yilning mos
davriga nisbatan

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘m

Xorazm viloyati

Urganch sh.

Xiva sh.

Bog‘ot

Gurlan

Qo‘siko‘pir

Urganch

Hazorasp

Tuproqqa'l'a


Xonqa

Xiva

Shovot

Yangiariq

Yangibozor



Jamiga nisbatan ulushi

20,0 %

Urganch shahri

15,6 %

Urganch tumani


13,9 %

Xiva tumani

Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Urganch shahri (312,8 mlrd. so‘m), Urganch tumani (244,2 mlrd. so‘m) va Xiva tumaniga (217,3 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

**Norasmiy sektor tomonidan
2024- yilning yanvar- iyun oylarida bajarilgan qurilish
ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 35,2 %ni yoki 1 045,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,1 %ni tashkil etdi. Shundan 742,0 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,4 %ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 247,6 mlrd. so'mni va 125,0 %ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 55,4 mlrd. so'mni va 109,0 % ni tashkil etdi.

Oldingi yilning mos
davriga nisbatan
93,1 %

Oldingi yilning mos
davriga nisbatan
108,9 %

490,9
mlrd. so'm

542,1
mlrd. so'm

671,4
mlrd. so'm

821,8
mlrd. so'm

1 045,0
mlrd. so'm

2020

2021

2022

2023

2024

107,5 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

112,8 %


oldingi yilning mos
davriga nisbatan

117,1 %

oldingi yilning mos
davriga nisbatan

Norasmiy sektor tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda



180,2 mlrd. so‘m
Urganch tumani



139,9 mlrd. so‘m
Hazorasp tumani




110,8 mlrd. so‘m
Urganch shahri

Ma’lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlaring eng katta hajmi Urganch tumanida (180,2 mlrd. so‘m), Hazorasp tumanida (139,9 mlrd. so‘m) va Urganch shahrida (110,8 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

yanvar-iyun oylarida hajm, *mlrd. so'mda*



■ Davlat mulkchiligi

■ Nodavlat mulkchilik

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 144,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 823,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,9 % va 95,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: nodavlat mulkchilikidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligi hajmining 19,4 %), Urganch tumanida (ushbu hududdagi umumiyligi qurilish ishlarining 15,0 %) va Xiva tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligi hajmining 10,8 %) qayd etildi.

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiyligi qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi
Tel. 62 224-65-22 (9020)